

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TALIM FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA TURIZM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

MAMIKONYAN TAMARA ABRAMOVNA

YAKKA XONANDALIK

(bas va bariton)

O‘QUV QO‘LLANMA

*Ta’lim yo‘nalishi: 5150600 – Dirijyorlik (Akademik xor dirijyorligi)
yo‘nalishi talabalari uchun*

МАМИКОНЯН ТАМАРА АБРАМОВНА

СОЛЬНОЕ ПЕНИЕ

(бас и баритон)

УЧЕБНОЕ ПОСОБИЕ

*Для студентов направления бакалавриата:
5150600 – Дирижирования (Академического хорового дирижирования)*

**Toshkent
“Renessans press”
2024**

UO‘K 784(075.8)

M 23

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan

Mas‘ul muharrir:

O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi «Akademik xor dirijyorligi»
kafedrası professori **L.X. Djumayeva**

Taqrizchilar:

O‘zDK Akademik xonandalik va opera tayyorlovi kafedrası professori,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

G.I. Muxamedova

A.Navoiy nomidagi DAKT Bosh xormeysteri, O‘zbekiston xalq artisti

S.N. Shodmonov

«Yakka xonandalik» o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Akademik xor dirijyorligi bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan va oliy o‘quv yurtlarining Davlat ta‘lim standartlariga hamda «Yakka xonandalik» fan dasturiga asoslangan holda yaratilgan.

Taqdim etilayotgan qo‘llanmada xonandalik rivoji haqida tarixiy ma‘lumotlar, ushbu fan uchun mo‘ljallangan ovoz sozlash mashqlari, fanning maqsad va vazifalari, ijrochilarning qo‘nikmalarini rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan.

Ushbu qo‘llanma Akademik xor dirijyorligi yo‘nalishida tahsil olatayotgan bakalavriat talabalar, pedagog va professional xonandalar uchun mo‘ljallangan.

Учебное пособие «Сольное пение» предназначено для педагогов и студентов бакалавриата по направлению «Академическое хоровое дирижирования» Государственной консерватории Узбекистана, составлено на основании Государственного образовательного стандарта высших учебных заведений и программы по предмету «Сольное пение».

Пособие включают в себя истоки развития сольного пения и методики, вокальные упражнения для развития навыков сольного пения.

Представленным учебным пособием могут пользоваться студенты, педагоги, профессиональные исполнители и любители пения.

The manual “Solo Singing” is designed for teachers and undergraduate students of the State Conservatory of Uzbekistan in the field of “Academic Choral Conducting”, is based on the State Educational Standard of Higher Education Institutions and the program on the subject of “Solo Singing”.

The manual includes the origins of solo singing and methods, vocal exercises for developing the skills of solo singing.

The presented textbook can be used by students, teachers, professional singers and amateur singers.

ISBN 978-9910-9201-1-0

© "Renessans press" nashriyoti,2024

SO‘ZBOSHI

Xonanda ovozi – tabiat tomonidan insonga berilgan kamdan-kam uchraydigan noyob qobiliyatdir. Inson ovozi rostdan ham ajoyib va jumboqlik bo‘lib, uni biz Allohdan tuxfa sifatida qaraymiz. Uning kelib chiqish tarixini tushunmoq uchun bir necha yuz yillar kerak bo‘lgan. Hozirgi davrga kelib odam anatomiyasi, uning jismoniy tuzilishi, ovoz apparatining uslubiy ko‘rinishi, uning kasalliklari va uni davolash yo‘llari juda katta tadqiqotlar evaziga keng ochib berilgan. Lekin, shuni alohida ta’kidlash kerakki inson ovozining ayrim sirli jihatlari hanuzgacha jumboqligicha qolmokda.

Vokal san’ati bizning kundalik hayotimizga shu qadar chuqur kirib bordiki, hozirgi kunda uning ajralmas qismi bo‘lib qolgan. Umuman olganda – bir necha muhim omillar: genetik, anatomik, jismoniy, psixologik, xalqaro va boshqa omillarning yig‘indisini o‘zida qamrab olishi inson ovozining naqadar muhim ahamiyat kasb etishini namoyon etadi.

Musiqashunoslikda musiqa va adabiyotning bir-biriga uzviy bog‘liqligi juda ham keng qamrovlik, qiyin va qiziqarliq mavzulardan biridir. San’atning bu turlarining chegaralari belgilanmagan. Yozuvchi yoki shoir musiqaning asl mazmun va mohiyatini ochib bersa, bastakor esa she’ri yoki adabiy asarning kerakli bo‘lgan joylarini ochib berishga harakat qiladi.

Ma’lumki, bizning og‘zaki va musiqiy nutqimiz bir necha parametrlarga bog‘liqdir. Masalan, musiqada so‘z kichkina iboralar bilan, melodik yoki musiqiy frazalar bilan va boshqa jihatlar bilan ochib beriladi. Og‘zaki nutqimiz musiqada quyidagi elementlar: ritm, temp, dinamika, intonansiya, frazirovka kabilar bilan ishtirok etadi. Har bir og‘zaki va musiqiy nutqimizning o‘zining avj nutqasi bor. Tinish belgilari musiqada pauzalar orqali ifodalanadi.

Badiiy obrazlarni butunligicha, ifodaliy, ma'noliy va tabiiy ifodalash uchun musiqiy va og'zaki nutqni to'g'ri yo'lga qo'yish zarur. Bunda bir-biriga zid ikki holatni kuzatishimiz mumkin: biri uni elementlarga bo'lish (bo'g'in, so'z, jumla, musiqiy ibora va boshqalar) bo'lsa, ikkinchisi badiiy obrazni butunligicha tuzilishini ifodalashga bo'linganligini ko'rishimiz mumkin.

Bo'g'in va so'z og'zaki nutqqa, musiqada esa tovushlar, akkordlar va intonatsiyalar bir xil qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ulardan qaysi birlari boshqalariga qaraganda ajralib turishlari va vazifalari turli hil bo'lishligi darkor. Musiqiy oqimning ifodalanishi so'zning ajralish va qo'shilishidan iborat bo'lish kerak. SHu tariqa, musiqiy so'z o'zida frazalik to'lqinni keltirib chiqaradi.

Artikulyatsion apparatning og'zaki va kuylashdagi tuzilishini o'rganishda N.I.Jinkin (1958), L.B.Dmitriyev (1962), R. Yussion (1974) va boshqa tadqiqotchi olimlar o'z izlanishlar olib borishgan. A.E.Varlamov (1953) 1888-yilda bo'lajak xonandalar uchun har bir so'zni shoshilmasdan o'ziga eshitilardi daraja bo'g'inma-bo'g'in, so'ngra so'zlarni dona-dona aytib mashq qilishlarni tavsiya qilgan. Bu mashqlar kuylaganda tinglovchida faqatgina musiqiy yo'lni emas, balki so'zlarning aniq ifodalanishi eshitishi mumkinligi isbotlangan. Taniqli mutahassislar o'zlarining qo'llanmalarida asosiy urg'uni xonandaning deklamatsiyasiga, diktsiyaning aniqligiga, aniq va ravon so'zlashishiga, musiqiy frazada so'zlarni ma'nosini buzmasdan kuylashni to'g'ri yo'lga qo'yishga e'tibor qaratishgan (N.Malisheva 1962; M.Donets-Tesseyer 1974; A.Konver 1976 va boshqalar). Butun dunyoga mashhur xonanda E.Karuzo quyidagi so'zlarni aytadi: «ko'p xonandalar, afsuslar bo'lsinkim, yaxshi diktsiyaga e'tiborsizlik qilishadi, buning oqibatida tinglovchilar xonanda qaysi tilda kuylayotgani va nima kuylayotganini tushunmaydilar.

Lekin shunday xonandalar ham borki, musiqiy asarning kuylayotgan tilini mukammal biladi, lekin u kuylayotgan narsani deyarli oz qismgina tinglovchiga tushunarli bo'ladi xolos. Shunga o'xshash ko'p xonandalar musiqiy so'zni ikkinchi darajali deb bilib, o'zining ovozi namoyon etishni yoqtiradilar, natijada esa so'zlar yo'qolib faqatgina xonandaning ovozi qoladi. Bu esa tinglovchida juda katta noqulaylikni tug'diradi.

Bir nechta insonlar so'zni aniq diktsiyalansa ovozning sifati yo'qoladi deb aytishadi. Bu noto'g'ri ran bo'lib, agar honanda so'zning tabiiy va to'g'ri kuylay olsa ovoz va so'z sifati a'lo daraja bo'ladi. Diktsiya ovozga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, balki unga ovoz kuchining barqarorlashishiga, ovozning yumshoq va bir maqsadga to'plashga yordam beradi. To'g'ri, aniq diktsiyani mukammal ovozga almashtirib bo'lmaydi, lekin aniq diktsiyasiz mukammal ovozga erishishning iloji yo'q...».

Kuylash jarayoni yakkaxondan artikulyatsion tuzilishni balandlik, kuch va ovozning unli va unsiz xarflar ketma-ketligini og'zaki va musiqiy nutqda to'g'ri joylashtirishni talab etadi. Ko'plab tadqiqotlar natijasida shunday hulosaga kelish mumkinki, ovoz apparati nutqsiz kuylash ko'nikmasini o'zlashtira olmaydi (N.I.Jinkin 1985).

Mukammal vokal diktsiyasiga erishish uchun xonandaning og'zi, lablari aniq undosh harflarni talaffuz etish uchun erkin bo'lmog'i zarur. Kuylashdagi bir hillikni oldini olish uchun og'zaki nutkdagi talaffuzni kuylashga ko'chirmoq kerak, ana o'shanda xonandaning ovozi tabiiy va ravon chiqa boshlaydi. Bunda so'zning va musiqiy frazaning asl ma'nosini tushunib yetish asosiy rol o'ynaydi. Lablarning juda xarakatchanligi tovushning sifatini yaxshilaydi, agar lablar yaxshi xarakatlanmasa moye ravishda ovoz sifati, so'zlarning tushunarsizligi xonanda va tinglovchida noqulayliklarni to'g'diradi.

Undosh tovushlar musiqiy mexanizmda ogʻzaki nutq kabi talaffuz qilinishi zarur, agar undosh tovushlarga urgu berilib kuylansa xonanda oʻziga boʻlgan ishonchni, aniq talaffuzni va qulaylikni his etadi. Aniq diktsiyaga erishish uchun uzoq va doimo diksion mashqlarni olib borish xonandadan talab qilinadi. Undosh tovushlarga koʻp urgu berilganda kuylashning sifatini buzib qoʻyishi mumkin, buning uchun baʼzi paytlarda bir necha marta tilni ogʻizdan tashqariga chiqarib, tez ortida qaytarib turish lozim. Bu mashq nafaqat diktsiyaga balki ovoz apparatining deyarli har bir aʼzosi uchun foydalidir. Musiqiy mexanizm ogʻzaki nutqdan unlilarni talaffuz qilishda farq qiladi. Unlilarni kuylash jarayonida xonanda oʻzida pastkixiqildoq, xiqildoq, tanglay va lablarni xalqumida his qilishda yordam beradi.

Musiqada unlilarni kuylash, ogʻzaki nutkdan koʻra koʻproq vaqtni oladi (N.L.Jinkin 1958, L.B.Dmitriyev 1962, S.P.Yudin 1962). Xonanda va uning ustozlari tomonidan olib borilgan bir maqsadga yoʻnaltirilgan aniq mashqlar va ish jarayonlari xayratlanarli natijalarga olib kelishi mumkin. Bunga faqatgina talabdan intiluvchanlik, tirishqoqlik va mehnatsevarlik talab etiladi. Talaba oʻzi uchun alohida vaqt ajratib dars jarayonida boʻlgan mashqlarni eslab, kun davomida ularni qoʻllab turishi va har gal ustozlari tomonidan nazorat qilinishi kerak. Agar nazorat ostida olinmasa talaba notoʻgʻri yoʻnalishda borib, ovoz apparatini boʻzib qoʻyishi ham mumkin. Pedagog tomonidan berilgan mashqlar talabaning kundalik hayotidan muhim oʻrin egallashi lozim.

IBO'LIM. MA'LUM BIR OVOZ TURI UCHUN XONANDALIK MASHQLARI, HAMDA OVOZNI YO'LGA QO'YISH USTIDA ISHLASH

Qo'shiq kuylashga o'rgatish mashqlardan boshlanadi. Ular qo'shiq aytishda zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashga yordam beradi, ovozni rivojlantiradi va yumshatadi.

Mashqlarda qo'shiq aytishning ikkita usuli qo'llaniladi – *legato* va *stakkato*: kantilena *legato*da rivojlanadi, xonandalik nafasi rivojlanadi, nafasni boshqarish ko'nikmalari shakllanadi, unli tovushlarni ohangi va registrlarni tekislashda yordam beradi. *Stakkato*da tovush bog'lamlari va diafragmaning ishi faollashadi, aniq hujum rivojlanadi, nafas hamda tovush tayanchi aniqroq seziladi. Mashqlardagi birinchi darslardan boshlab, *legato* va *stakkato*ni o'zgaruvchan tarzda foydalanish kerak.

Mashqlar maqsadli bo'lishi kerak. Qo'shiq kuylashdan oldin o'quvchiga har bir mashqning vokal va texnik vazifalarini tushuntirish kerak.

№-1,2. Xonandalik nafasini to'g'ri rivojlantirish. Kuylashni o'rta diapazonda boshlash kerak. Mashqani yarim tondan tepaga va pastga yo'naltirilgan holda bajarish lozim.

1 Andante



2 Andante



№-3,4. Ovoz hujumi, diafragmaning faolligi va harakatchanligini rivojlantirish ustida ishlash. Bu mashqlar ovozning professional sifatlarini rivojlantiradi: tembr, tovushning bir xilligi. Yarim ton yuqoriga ko‘tarilib va keyin pastga tushurib, seksta intervali oralig‘ida kuylanadi.

3 Moderato

4 Moderato

№-5,6,7,8,9. Kantilena shakllantirish uchun. Legatoni yumshoq va sirg‘alishlarsiz kuylash, barcha unli tovushlarning bir tekisda jaranglashiga erishish. Mashqlarni unli tovushlarni eng qulay, yorqin va erkin jaranglaydigan balandlikdan boshlash tavsiya etiladi. Yarim tondan yuqoriga va pastga yurib kvarta intervali oralig‘ida kuylash lozim.

5 Andante

и - е - а - о - у

6 Andante

и - е - а - о - у

7 Andante

и - а - и - а - и - а - и

8 Andante

и - а - и - а - и - а - и

9 Andante

и - а - и - а - и - а - и - а - и, а

№-10.11. Artikulyatsiyani rivojlantirish, undosh tovushlarni aniq talaffuz qilish, lablar faoliyatini rivojlantirish, tilning to‘g‘ri yo‘naltirish uchun.

10 Allegretto

та - та - та - та - та, та - та - та - та - та, та - та - та - та - та - та - та - та - та - та - та.

11 Andante

Bel - la ro - sa, ro - sa, ro - sa.

№-12. Ohangdorlikni rivojlantirish uchun kantilenaning alohida elementlari, unli tovushlarning kuch va tembr jihatidan bir tekisligi.

12 Andante

и - е - а - о - у,
а - е - и - о - у,

и - е - а - о - у,
а - е - и - о - у,

и - е - а - о - у,
а - е - и - о - у,

и - е - а - о - у,
а - е - и - о - у,

№-13,14. Ovozning harakatchanligi va moslashuvchanligini rivojlantirish uchun. *Legato* va *staccato* navbat bilan almashtirib kuylash tavsiya etiladi. *Legato* texnikasini martellato bilan, ya'ni kechiktirilgan og'ir *staccato* bilan o'rganishni boshlashingiz kerak, uni o'zlashtirgandan so'ng, qisqa va o'tkir *staccato*ga ko'proq harakatlanuvchi tezlikda o'ting.

13 Moderato

1. *legato*
2. *staccato*

14 Moderato

1. *legato*
2. *staccato*

№-15. Arpedjio gammani pastga qarab kuylanishi qo‘shilishi bilan yuqori ovoz pozitsiyasini topishga va saqlashga yordam beradi. Dastlabki tovush bosimsiz jaranlashi kerak.

15 Moderato

№-16,17. Tovushni yaqinlashtirish uchun ovozning harakatchanligi va moslashuvchanligini rivojlantiring, pastga qarab harakatlanayotganda tovushning yuqori holatini toping va saqlang.

16 Moderato

Musical score for exercise 16, Moderato, 2/4 time signature. The score consists of three systems. The first system shows the right hand playing a melody of eighth notes with slurs and accents, and the left hand playing a simple bass line. The second system continues the melody and bass line. The third system concludes the exercise with a final chord in the right hand and a whole note in the left hand.

Continuation of the musical score for exercise 16, Moderato, 2/4 time signature. The right hand continues with eighth-note patterns, and the left hand provides a steady bass line. The exercise ends with a final chord in the right hand and a whole note in the left hand.

17 Allegretto

Musical score for exercise 17, Allegretto, 4/4 time signature. The score consists of two systems. The first system shows the right hand playing a melody of eighth notes with slurs and accents, and the left hand playing a bass line of chords. The second system continues the melody and bass line, ending with a final chord in the right hand and a whole note in the left hand.

№-18,19. Gammaga oʻxshash kuylash orqali ovozning harakatchanligi va moslashuvchanligini rivojlantirish.

18 Allegro

Musical score for exercise 18, Allegro, 6/8 time signature. The score consists of two systems. The first system shows the right hand playing a melody of eighth notes with slurs and accents, and the left hand playing a bass line of chords. The second system continues the melody and bass line, ending with a final chord in the right hand and a whole note in the left hand.

19 Allegro

№-20.21. Gamma yuqoriga ko‘tarilish va pastga tushish harakati. Gammalarni kuylash vokal texnikasini o‘zlashtirishning eng muhim vazifalaridan biridir. Har bir nota tovushining aniq va ravshanligini kuzatib borish, alohida notalarni ajralib jaranglashiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Tez harakatda gammalarning aniq va yorqin jarangiga erishish uchun ularni avval «ta», «da» yoki «na» bo‘g‘inlarida kuylash, so‘ngra «a», «e», «o» unlilariga asta-sekin tempni tezlashtirish orqali o‘tish kerak.

20 Andante

21 Moderato

The image shows two systems of musical notation for exercise 21. Each system includes a vocal line (top staff) and a piano accompaniment (bottom staff). The piano accompaniment consists of a steady eighth-note bass line and chords in the right hand. The vocal line features eighth-note runs in the upper register, with some notes tied across measures.

Vokal va texnik ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun mashqlar.

№-22. Ovozning tabiiy tembrini, barqaror va aniq intonatsiyani ochib berish. Ovoz chiqarish paytida va umuman mashq bajarish paytida nafas olishdan oqilona foydalanishni kuzatish kerak. Ovoz har bir notaning davomiyligini saqlab, bir xil kuchda va bitta tembrda uslab turish. Erkin jaranglaydigan notada, o‘rta diapazonda kuylash lozim. Mashqni o‘zlashtirganingizda, asta-sekin yuqoriga va pastga xarakatlanib kuylash tavsiya etiladi.

22 Andante

The image shows two systems of musical notation for exercise 22. Each system includes a vocal line (top staff) and a piano accompaniment (bottom staff). The piano accompaniment consists of a steady eighth-note bass line and chords in the right hand. The vocal line features whole notes in the upper register.

№-23,24. Nafas olishni rivojlantirish, kantilenani yaxshilash uchun. Dumaloq «a» unlisida chiroyli jarangdor ovoz bilan xotirjam kuylash lozim, barcha notalar bir tekis va tembrda bir xil yangrashini nazorat qiling.

23 Andante

24 Moderato

№-25. Nafas olishni rivojlantirish, yuqori tonlarni mustahkamlash, tovush dinamikasini o'zlashtirish, o'zgaruvchan *forte* va *piano* kuylash shaklida. *Pianoda fortening* barcha tembr sifatlari saqlanishi uchun, faqat ovozning kuchini pasaytirish kerak. Ushbu mashq nozik elementlarni rivojlantiradi.

25 Moderato

№-26,27. Diapazonni kengaytirish, yuqori notalarni mustahkamlash, registrnlarni tekislash, ovoz dinamikasi, keng kantilena va hissiy kayfiyatni o'zlashtirish uchun. Har safar sur'atni o'zgartirib, iltijo bilan, jahl bilan, hayajonli, tarzda kuylash kerak.

26 Andante

1. умоляюще
2. гневно
3. весело, живо

27 Andante

печально

№-28,29,30. Ravon kuylash texnikasini rivojlantirish. Ovoz paychalarini egiluvchanligiga, elastikligiga, zo'riqtirib kuylashni yo'qotish uchun foydalaniladi. Intonatsiya va ritmik ravshanlikka rioya qiling, bir nota guruhini boshqasidan ajratib turadigan urg'ularga rioya qiling. Dastavval o'rtacha tezlikda bajaring, keyin esa asta-sekin tezlashtiring.

28 Allegro - Presto

29 Allegro

First system of exercise 29. The right hand part features a series of eighth-note triplets with accents, followed by two groups of eighth-note pairs with accents. The left hand part consists of a steady eighth-note bass line.

Second system of exercise 29. The right hand part begins with a triplet marked *f rit.*, followed by a triplet marked *p* and *a tempo*, and then four more eighth-note triplets with accents. The left hand part continues with a steady eighth-note bass line.

30 Allegro

Exercise 30. The right hand part features a continuous eighth-note pattern. The left hand part consists of a steady eighth-note bass line.

II BO‘LIM. ARIYA VA ROMANSLARNING MUSIQIY-IJROCHILIK MASALALARI, BADIY IFODASI USTIDA ISHLASH

Musiqiy asarlar ustida ishlash.

Musiqiy asarning boshlang‘ich ishlash jarayonlari, avvalambor, uning matni ustida kechadi. Matndagi unli tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni ishning boshidan asosiy maqsad qilib olmoq zarur. Unli tovushlarni kuylash vaqtida, xonanda o‘z ovoz apparatini qulay darajada ishlata olishi kerak. Unli tovushlarni og‘iz bo‘shlig‘ini yumaloq tarzda kuylash orqali xonandada fonetik aniqlik, so‘zlardagi aniqlik kabi jihatlarga osongina erishiladi. Boshqa tomondan esa og‘iz bo‘shlig‘ini yumaloqlash bir xilgi unlilar, ayniqsa «a» yassi unli xarfiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday holatlar asosan milliy manerada kuylashda kuzatiladi. Xonanda bunday noqulayliklardan xolis bo‘lishi uchun o‘z ustida tinmay kerakli mashqlar olib borishi zarur.

SHuni alohida ta’kidlash kerakki, yosh xonandalarni dars jarayonida pedagog va jo‘rnavor tomonidan qattiq nazorat ostida turli xil vokal maneralaridan foydalangan holda so‘z talaffuz mashqlarini olib borishi va agar xatoga yo‘l qo‘yilsa darrov xatosini tushuntirib, uni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib turmoq lozim. Bunda tovush go‘zalligi va nafisligini so‘zlar uyg‘unligi bilan hamohang tarzda, har bir so‘z mustaqil ravishda o‘z ma’nosini saqlagan holda mashqlar yo‘lga qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

1. Musiqiy asarni o‘rganishga kirishishda avvalambor uning musiqiy yo‘lini yodlab, uni ichki xotira bilan bir necha bor takrorlash zarur. Musiqiy yo‘lni deyarli yodlab olgandan so‘ng xonanda esida bor materialni «o» unlisiga kuylashi va har bir notani «cho‘zib» ijro qilishi kerak.

Jumladagi boshlang‘ich nota past ovozda cho‘zib kuylanishi kerak.

Agar talabada «o» unlisiga boshlang‘ich notani past ovozda cho‘zib ijro etishda qiyinchiliklar tug‘ilsa, unda talaba uchun qulay bo‘lgan unlilardan foydalansa bo‘ladi.

Jumladagi ketma-ket keladigan notalarni ham choʻzib ijro qilishga xarakat qilish kerak, buning uchun bizda ikkita yoʻl mavjud:

– Xoxlasangiz xar bir notani bir-biriga taaluqli boʻlmagan holda choʻzib ijro etish;

– Yoki nafas oqimi orqali bir notadan keyingi notaga xujum qilish orqali xarakat qilish kerak, bunday yoʻllar albatta, jumlaning tuzilishiga koʻra tanlanadi.

Birinchi yoʻlda xafo oqimining qoʻshni notalar orasidagi uzilishlar boʻlmasligiga ahamiyat berish zarur. Bunda unli tovushlarni oʻz erkinligi boʻyicha kuylash va bu bilan bir vaziyatda xavo oqimining uzilishiga yoʻl qoʻymaslik kerak boʻladi.

Yuqoridagi mashqlar bilan musiqiy asarni bir necha bor takrorlab boʻlgandan soʻng, oʻkuvchi va pedagog asarni taxlil qilib chiqishi kerak. Talaba oʻzida yuz berayotgan vaziyatlarni toʻgʻri tushuntira olsa, pedagog bu vaziyatga qarab oʻquvchiga kerakli va zarur boʻlgan maslahatlar berishi mumkin. Masalan unli tovushlarni fraza ichida choʻzib ijro etish talaba noqulaylik tugʻdirsa, bu mashq oʻrni boshqa bir tovush xujumiga oid mashqni qoʻllab koʻrsa boʻladi.

2. Unli tovushlar va yopiq ogʻizda koʻrsatilgan barcha mashqlarni yetarli daraja qilib boʻlgandan soʻng, talaba asarning oʻz soʻzlari bilan kuylashga xarakat qilib koʻrishi mumkin. Bunda birinchi banddagi barcha talab va koʻnikmalardan chetga chiqmagan holda soʻz bilan ishlash jarayonida asosiy urgʻuni unli larni toʻgʻri talaffuz etishga qaratmoq kerak.

Unli tovushlar ham undosh tovushlarni ham kuylash jara nida har bir soʻzning boʻgʻiniga va maʼnosining oʻzgarib ketmasligiga ahamiyat bermoq lozim. Agar siz harflarni artikulyatsiya apparati orqali juda ham kuchli tarzda diktsiyalashga harakat qilsangiz, sizda xavo oqimida siqilishlar va erkin kuylashga toʻsiqlik qiladigan xolatlarga duch kelishingiz mumkin. Buday xolatlarga yoʻl qoʻymaslik uchun siz birinchidan, oʻzingizda frazaning uzilishi, kuylashning ogʻirligi va tovush ketma-ketligi buzilganligi belgilarini payqasangiz kuylashni

o'sha zahotiy oq to'xtating, ikkinchidan, kuchli tarzda talaffuz qilinayotgan undosh harflarni unlilar orqali yumshoq kuylashga xarakat qilib ko'ring.

Boshqacha qilib aytganda undosh tovushlarni xuddi «quduq tubidan» chiqayotganday tasavvurda kuylash va xavo oqimini tekisligiga, uzluksizligiga ahamiyat berish zarur.

3. Kuylashdagi bir xillik, tovushning xarakatsizligi kabi xolatdan qo'rqing. Ular sizda jismoniy qisilishni, xarakatlarning erkin emasligi, g'ayratsizlik kabi xolatlarga olib keladi, bu esa kuylashga va nafas olishdagi sustkashlik kabi xolatlar ro'y berishiga sababchi bo'ladi.

Kuylash paytida umrtqa pog'onasi egiluchan va harakatchan bo'lishi zarur. Bu o'z navbatida nafasning tayanchi va tovushning xarakatchanligiga olib keladi.

Qo'l xarakatlarini ham unutmash kerak, qo'l yordamida «sanchib olish», «tortib olmoq» va boshqa harakatlar tovush xujumini hayolan shakllantirishda katta yordam beradi.

4. Quyidagi fikrlarni doimo yodda saklang: yangi musiqiy asarni xech qachon baland ovoz kuylab, baqirib o'rganmang; bosh registri orqali soxta tovushni hosil qila ko'rmang, ovoz kuchini asrashga xarakat qiling, jismoniy toliqish oldini olish yo'llarini qidiring va ovozning yengilligiga asosiy e'tiborni qarating.

Kuylash ko'nikmalarini to'g'ri amalga oshirayotgan paytingizda, ya'ni, «quduq tubidan» undoshlarni kuylayotganingizda, diapozonning yuqori notalari sizning nazaringizda eshitilmayotganday tuyuladi. Siz bundan qo'rqmasdan shu tarzda kuylashni davom ettiravering. Ovoz kuchiga va yuqori notalarni baland kuylashga xarakat qilmang. Umuman olganda o'zingizni baland, chiroyli ovozingizga mahliyo bo'lmang. Siz bundan ko'ra o'z ko'ngligizga va jismoniy imkoniyatingizga asosiy urg'uni bering, sizning ovozingizga esa tomoshabinlaringiz baho berishadi.

«Ichki xis tuygularni odam ovozidek hech bir asbob jumbushga keltira olmaydi. Buning uchun ovoz torlarini mohirona va yurakdan chertmok, zarur, u taisharidan keladigan fikr-mulohazalarga muxtoj emas» (Kristin Linkleyter).

SHuning uchun ovoz kuchi ovoz sifatida asosiy rolni o'ynamaydi (shuni yodda tutingkim, past va mayin ovozda bir ko'proq rohat olamiz).

Tovush kuchi xonandaning jismoniy xolatidan tashqari u kontsert beradigan zalning akustikasiga ko'proq bog'liqdir. Akustik jihatdan yomon sanaladigan zalda siz tabiiy ravishda ovozni kuchaytirishni boshlaysiz, bu esa o'z navbatida ovoz sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bir vaqtlar mashxur italiyalik dirijyor Artura Toskanini o'sha vaqtlardagi taniqli bo'lgan xonanda Toti Dal' Montedan repetitsiya jarayonida Djil'da ariyasini kuchli va yumaloq tovushda aytib berishni so'ragan. SHunda xonanda o'z ovoz imkoniyatlari chegarasini bilganligi tufayli – «Maestro, agar siz xoxlaganday kuylasam ariyaning o'rtasigacha ham bora olmasam kerak..» – deya javob bergan ekan.

5. Xar hil notalarni kuychanlik hosil bo'lishi uchun qo'shib kuylash shart emas. Agar shunday holatda kuylashga harakat qilsangiz ko'krak registringiz o'z-o'zidan yo'qolib boradi. Kuychanlik o'zingiz bilganingizdek, xavo oqimining uzliksiz davomiyliyi va to'g'ri tovush xujumi orqali namoyon bo'ladi.

6. Agar kuylashning «texnologik jarayon» ini umumiy qilib tushuntirganda, u o'zida uzluksiz xavo oqimida notalar ketma-ketligini «Quduq tubidan» va «ovoz quyishmalari»ni namoyon etadi.

7. Tovushni ichki tuyg'u bilan doimiy ravishda to'ldirib bormoq lozim. Agar tovush nazorat ostiga olinmasa, u sifat nuqtai nazaridan qaraganda: o'tkir, qattik va ochiq tarzda yangray boshlaydi.

P.I.Sikurning «His-hayajonni shakllantirish usublari» nomli kitobi to'g'risida biroz to'xtalib o'tmoqchimiz. Bu qo'llanma dildan, qalbdan kuylashni shakllantirish va uni rivojlantirish uchun yosh mutaxassislar uchun juda kerakli qo'llanmadir. Undagi ijrochilik mashqlari ixtiyoriy ravishda xonandada xoxlagan

kayfiyatni shakllantiradi. Bunday mashqlar kelajakda uchrab turadigan xar qanday xolatlarga xonandalarni tayyorlab boradi. Turli xil emotsional holatlarni o'rganib, uni yodda saqlashga harakat qilish zarur. Ular kelajakda ijodiy jarayoningizda asqotishi mumkin. Bu mashqlarning mohiyati shundaki talaba bir matnni turli xil emotsional xolatlarda talaffuz qilishi, yoki kuylab ko'rishi zarur (Xursand, xafa, qayg'uli, tantanavor, mardonavor va boshqa xolatlar). Bunday mashqlar xonandaning ovoz xarakterligi, emotsional ifodaviyligi kabi hislatlarni shakllantiradi. Quyida P.I.Sikurning bir qancha mashqlaridan namunalar berib o'tamiz:

1. Ovoz sozlash mashqlarida unli tovushlarni, bo'g'inlarni, o'zingizga yaxshi tanish bo'lgan asarlarning chiroyli musiqiy yo'llarini turli xil emotsional xolatlar bilan kuylash;

2. Talaba musiqiy asarni, yoki frazalarni kuylayotganda aniq bir mo'jzalni ko'z oldida gavdalantirishi zarur. Masalan muxlislar bilan lik to'la kontsert zalini, yoki xayotiy bo'lishi uchun oldida biron bir do'stini keltirib unta kuyshlashni mashq qilish;

3. Vokal ijrochilik intonatsiyalari orkali og'zaki va kuylovchi ovozni chiniqtirib borish zarur. Bunda kuylayotgan so'zingizni teskari tomonini uylab kuylashga xarakat qiling. Masalan: «Men seni sevaman» deb kuylasangiz, xayolingizda «Men sendan nafratlanaman» kabi xayol o'tishi lozim. Bunday vaziyatda so'z oddiy xolatda aytilishi lekin so'zning mazmunini dildan his qilishingizni shakllantirish lozim;

4. Kuylayotgan frazangizdagi asosiy so'zni topib undagi ma'no beruvchi unlisini cho'zib kuylash lozim, kuylayotganingizda undosh tovushlarni bo'rtirish talab etiladi.

YUqoridagi mashqlarni asl ma'no va mohiyatini tushungan holda amalga tadbiiq etish katta foyda keltiradi. Asosiysi vokal asarlarini tabiat qo'ynida, so'ngra sinfda tabiatni his qilib kuylash fikrlashni teranlashtiradi. Bunday fikrlashlash va mashqlar ijodiy kontsertlarga chiqish oldidan juda ham foydalidir.

Matn va musiqaning umumiyligi.

Musiqiy asar – sheʼr va melodik yoʻlining birgalikda kelishi, ularning ajralmas biriligi, undagi musiqiy yoʻl va sheʼriy matnlar oʻzaro qoʻshilishi va bir-birlarini toʻldirib kelishi tushuniladi. Qoidaga koʻra sheʼr musiqadan oldinroq dunyoga keladi, lekin, musiqa oʻz erkinligiga ega xolda matnning xoxlagan joyiga joylashishi va matnning maʼnosini saqlagan xolda boʻgʻinlar toʻgʻri kelishi uchun soʻzning sinonimlariga oʻzgartirish xuquqiga ega. Bir hilgi boʻgʻinlar kuylanadi, ayrimlari esa «yutilib» ketadi; Musiqada fonetik oʻzgarishlar, soʻz urgʻularining joylashuvi va talaffuz harakatlarida oʻzgarishlar boʻlishi mumkin. Natija yangi musiqiy til hosil boʻladi. Bu esa oʻz navbatida xonandada ham, tinglovchida ham qulaylik tugʻdirish maqsadida roʻy beradi.

Musiqiy til tomoshabinga yuzlanganda yangicha maʼnoni, yangicha xabarni berishni talab qiladi. Toʻgʻri, biz kuylayotganimizda sheʼriy soʻzlarning ayrimlarida maʼno jixatidan oʻzgarishlar roʻy berishi mumkin, lekin biz shuni alohida taʼkidlab oʻtishimiz kerakki, xonanda oʻzi kuylayotgan musiqiy asar mazmunini faqatgina sheʼriy tarzda emas, balki uni ifodaviy va taʼsirchan ovoz orqali yetkazib berishi zarur. Ayrim paytlarda bunday hodisalar roʻy bermaydi. Bir hilgi musiqiy asarlar ham borki uning matnining asl mohiyatini mukammal daraja talaffuz etilmasa, umuman boshqa maʼno kelib chiqishi mumkin. Taʼkidlash kerakki, barcha soʻzlar astoydil kuylanadi, barcha ogʻzaki tovushlar artikulyatsiyalanadi: xonanda ogʻzini ochadi, yopadi, lablarini yumoqlab, choʻzishi mumkin, bunday xolatlar tomoshabinda matnni tushunmasligiga olib kelishi mumkin.

Musiqiy asarni matnning asl maʼnosini bilmagan holda kuylash xonanda ovozigacha uncha taʼsir oʻtkazmaydi. Agar oʻzi uchun tushunadigan yoki tushunmaydigan tilda romans kuylashning farqi yoʻq, agar oʻzi uchun tanish tildagi musiqiy asarni kuylasa, uning fonetikasi xonandaga qulayliklar tugʻdiradi. Uzi uchun begona tildagi asarni kuylash tinglovchi tomonidan qarshiliklarga

uchramaydi. Va albatta romanslarni o'z tilida yoki tarjima qilingan holda kuylanishining farqi yo'q.

Musiqaning bunday qonunlari kishini shubhaga solmaydi. Lekin shuni ham aloxida aytib o'timiz kerakki, musiqa butunligicha matndan tashqariga chiqishi mumkin emas. Agar o'zaro bog'liqlik yo'qolsa asarning mazmuni va g'oyasi ham yo'qoladi. Musiqiy g'oyani matn orqali, matnga bo'y sungan holda tushuntirmaslikni rad etib bo'lmaydi. Matn musiqani doimiy ravishda tasdiqlab turishi lozim. Ayrim hollarda so'zga tushunmaslik, yoki so'zni umuman aytmalik va usiz kuylab o'tish mumkin, lekin shunday tug'ma dog' borki, u musiqiy tilni qoldirib ham, uni o'chirib ham bo'lmaydi. Bu til musiqiy yo'lning o'zida, vokal melodiyasining soyasida qolib ketgan so'zlarda bo'lishi mumkin. Ularni aslo ajratib bo'lmaydi. Musiqiy asarda melodik yo'l - erkin parvozdagi samolyot emas, balki, u tilning uchiga bog'langan ilon kabi bo'lishi ehtimoli juda katta. Albatta, bu fikrni tajribadan o'tkazib ko'rish kerak.

Kompozitor tayyor matnga musiqa bastalashda ikki asosiy yo'l: til va she'riyatdan foydalanadi. Natija mahsuli esa musiqaning ham tilga, ham she'riyatga mos tushishi va shu o'rinda til va she'riyatning musikada jonlanishi hosil bo'ladi. Dastlab, musiqa va matn bir-birini to'ldirayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin, taqqoslash uchun – she'riyat va tilning uyg'unlashuvini kelitirishimiz mumkin. Lekin, she'riyatning tilga nisbatanligi va musiqaning she'rga nisbati orasida yer va osmonchalik fark mavjud.

She'riyat tilning barcha birikmalariga yo'naltirilgan bo'lib, uning qoidalariga zid ravishda hech narsa qila olmaydi. She'riy qayta ishlash tilni charxlab boradi, undagi tabiatan yorqin bo'lgan darajalarni tushunishga yordam beradi. She'riy til tabiiy birlikdagi og'zaki nutq orqali rivojlanib boradi.

Musiqa – tovush chegaralarining barcha jabhalarini egallab boradi: Chegaralar zichlashib borishi differensialangan alomat tufayli zarar keltirmaydi. U musiqiy va og'zaki tovushlarni, melodiya va so'zni bir-biriga kirishib ketgan holda qabul qilinishiga yo'l qo'ymaydi.

Barcha musiqiy tovushlarni ogʻzaki nutq bilan solishtirish uchun musiqiy differensialangan alomat kerak boʻladi, u oʻzida matnning fonetik tuzilishini, ogʻzaki tovushlarning artikulyatsion oʻzgarishlarini, tildan tashqari matni yozilgan davrlarga bogʻliq xolatlarini talab etadi.

Soʻzning teatr sanʼatidagi oʻrni toʻgʻrisida oʻtgan asrning 20-yillarida ijod qilgan teatrshunos G.G.Shpet oʻz izlanishlari va tajribalaridan kelib chiqqan holda shunday deydi: – «Aktyorning oʻz ustida ishlashi va sahna nutqidan toʻgʻri foydalana olishini soʻz «xarakati» belgilaydi».¹ V.I.Nemirovich-Danchenkoning fikriga koʻra aktyorlarning oʻzaro suhbatlari chogʻida koʻplab intonansiyalardan foydalanilib, ular sahnaviy nutqning shakllanishi uchun juda ham katta yordam beradi, bundan tashqari bunday suhbatlar chogʻida aktyorlarda yangidan yangi gʻoyalar va obrazlar dunyoga kelishi koʻp bor kuzatilgan. SHuningdek, V.I.Nemirovich-Danchenko oʻzining rejissyorlik faoliyati davomida shu narsaga amin boʻlgan ekanki, qachonki aktyorning ichki dunyosi goʻzal boʻlsa u bilan ish jarayonida murakkablik tugʻilmaydi. Ishontirib aytishimiz mumkinki, dramatik teatrdan tayyorgarlik jarayonida deyarli barcha rejissorlarning aktyorlarga nisbatan oʻz kalit soʻzlari boʻlishi kerak. Masalan – «Soʻz har doim sanʼatning gultoiji boʻlishi kerak, u barcha masalaraning yechimida muhim rol oʻynadi va psixologik nuqtai nazardan aktyor va rejisser oʻrtasidagi muhim aloqa vositasi sanaladi».²

Taniqli kino rejissyorlaridan biri K.S.Stanislavskiy oʻz gʻoyasini nazariy bilimlar asosida va amaliy ish jarayonida isbotlab bergan kam sonli rejissorlardan biri sanaladi. Uning oʻquvchisi N.Gorchakov ham ustozlari toʻgʻrisida, uning ish jarayoni toʻgʻrisida oʻquv qoʻllanma yaratadi. Unda soʻz xarakati orqali rejissyor shunday muomila qilishi kerakki u barcha soʻzlardan zargarona foydalangan holda har bir aktyor uchun kerakli jummalarni ishlata olishi zarur. Uning formulasi boʻyicha: Matn – ogʻzaki xarakat va uning roli-maʼno-soʻz-ish jarayonida har bir personaj uchun alohida muomila; «maʼnoli harakat» har bir aktyor uchun mohirona

¹ Шпет Г.Г. Театр как искусство. // Из истории советской науки о театре. 20-е годы. / С.В.Стаخورский. - М.: ГИТИС, 1988. - С. 47

² В.И.Немирович-Данченко Статьи. Речи. Беседы. Письма. - М.: Искусство, 1952. - С. 213

soʻz ishlatish kerakki u soʻz yordamida aktyorni ruxdantira olishi zarur; obrazlarni mantiqqa koʻra tanlash, bunda mantiqqa koʻra aktyorlarning har personaj timsolida koʻrishgina kirmay, uni aktyorning qobiliyati oʻsha personajni gavdalanantira olishini oʻylab koʻrish, shuningdek, maʼnoli soʻzlarning xammasi ham quloqqa kirmaydi. Ularni rivojlantirish va shakllantirish uchun yillar davomida tinmay va uzluksiz mehnat qilish kerak boʻladi.³

Tilshunoslikning ichki obrazi shuningdek, xarakatchan va hayotiy koʻrinishdan iborat. XX asr boshlarida taniqli rassom, psixolog-olim, nazariy sanʼatshunos N.N.Volkov birinchilardan boʻlib rasmning soʻz bilan oid jihatlarini, uning tashqi koʻrinishi orqali «ichki» obrazi namoyon etishini keng ommaga tadbiiq etgan. Masalan: u Antonelo de Messining sanʼat asari boʻlmish «Sv.Sebastʼyan» nomli asarida «Biz Sebatʼyanning dardini va yolgʻizlikdan chekayotgan azobini bir qarashda koʻrishimiz mumkin, Sebastʼyan qiyofasi birinchi planni butunliga egallab olgan va tomoshabinga yuzlanib turibdi, buning sababi uning dardli monologi tomoshabinni tinglovchiga aylantirish maqsadidadir».⁴

Soʻz qahramonni harakati, vaqtlar aro harakatlanishini, ichki tuygʻuni mantiq bilan hamohangligini va mezanssena nomli koʻrinish sharofati evaziga teatrlashtirish tomoshasini tushunib yetishimizda muhim omil sanaladi.

«Oʻylashimcha, asarning asosining mazmunini, tashqi garmoniya, tashqi melodik koʻrinishi va uning tashqi tuzilishi belgilamaydi, balki uning maʼnosining «maʼno» - «soʻz», «soʻzlamoq» kabi ifodaviy vositalar belgilaydi...» deya taʼrif beradi oʻz kitobida N.N.Volkov.

Vokal musiqiy asarning talaba bilan ishlash jarayonida ichki obraz xolati metafora nutqi orqali shakllantirish muvaffaqiyatli tajribadan oʻtkan boʻlib, talabada kinoya orqali oʻz his tuygʻularini ikkilamchi yoʻl bilan rivojlantirish mumkin. Xonanda kuylayotgan asarning soʻz maʼnolarini ichki hissiyotlari orqali

³ Н.Горчаков " К.С. Станиславский о работе режжиссёра с актёром" М. ВТО, 1958. - С. 159

⁴ Н.Н.Волков "Композиция в живописи" М.,1977. - С. 171-172

dildan kuylashi, albatta uning tashqi ko‘rinishiga ta’sir o‘tkazadi. Bunday xolatlarda yosh va xavaskor xonandalar avvalambor ko‘zgu yordamida kerak bo‘lsa soatlab mashq qilishlari talab etiladi.

Xonandalik kasbi shunda nozik narsaki, u tinglovchi va tomoshabinda eshitayotgan va ko‘rayotgan musiqiylikni bir hil bo‘lishligini talab qiladi.

Asarning xarakteridan kelib chiqqan holda, ma’yus kayfiyatdagi ovoz, xonandaning yuz tuzilishida ham o‘z aksini topishi zarur. Pedagog talaba bilan doimiy muloqot qilgan holda asar qahramonini xonanda ichki dunyosi bo‘ylab shakllantirishga erishishi kerak. Shundagina musiqiy obrazning tabiiyligi va sofligi xonanda tomonidan yoritilib beriladi.

Vokal ijrochiligida romanslarning alohida qismlariga to‘xtalib, ularga urg‘u berib, uning dinamik va ifodaviy qirralariga chuqur yondashib asar tahlilini erinmasdan mayda elementlarigacha qarab chiqish talab qilinadi. Pedagog talabadan o‘z ijodiy salohiyatini, dunyo qarashi va fantaziyasini so‘zlab berishini talab qilishi, agar talaba bunga qiynalsa unga ko‘maklashib tayanch atamalar yordamida uning so‘z boyligi va fikrlashini kengaytirish zarur. Shu o‘rinda o‘rganilayotgan musiqiy asarning audio yoki video tasmlari orqali talabaning fikrlarshini kengaytirish va har bir tasmlarni ko‘rib bo‘lgandan so‘ng, uning tahlilini birgalikda qilish shart. Shuningdek, audio va video tasmlar bir necha mashhur xonandalar tomonidan yozib olingan bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. L.B.Dmitriyev ta’kidlashicha – «Buyuk xonandalar tomonidan kuylangan asarlarning ovoz yozuvlarini sinchqovlik bilan bir necha marotaba eshitish va uni taxdil qilish talaba hotirasida mustahkam joylashishiga sabab bo‘ladi» – deydi. Asar tahlilini o‘zlashtirish jarayonida asarning yozuv usulini, kuylash maktablarning farqini bilish ko‘nikmasi talabada musiqiy didni, uning dunyo qarashini va vokal idealini tushunishda salmoqli o‘rin tutadi.

Eng asosiysi – talaba musiqiy asarni o‘rganish jarayonida o‘zi uchun qulay xolatni qidirishi lozim. Asarni kuylash jarayonida o‘zining ichki eshitish qobiliyati

yordamida jo'rsiz xolatda musiqiy-psixologik obrazni shakllantirishga xarakat qilib ko'rmoq zarur.

Agar xonanda matnning asl ma'no va mohiyatini tushunib, dildan kuylasa uning so'zlari tabiiy, sof va albatta ishonarli bo'ladi. Emotsional xolat ko'p xollarda xonanda kayfiyatini ko'tarishga yordam beradi. Bunday xollarda fikrlash uchun mashqlardan keng qamrovda foydalanish maqsadga muvofikdir.

Mashhur pianinochi Gans Byulov o'z ijodiy faoliyati davomida musiqiy ijrochi musiqiy asarni o'rganishida uchta pog'onani bilishi kerak: To'g'ri ijro, yaxshi ijro va qiziqarli ijro. Vokal ijrochiligi ham ushbu tamoyilga chambarchas bog'liq. «To'g'ri» ijro bu nafaqat asarning dinamik, talaffuzning aniqligi, tovushning to'g'ri yo'naltirilganligi, balki, hamma diapozonda to'g'ri kuylash fikrini tushunmoqligidir. Ovozning ko'rkamligi, erkinligining shakllantirish va rivojlantirishda vokal texnik mashqlarining ahamiyati katta.

Kuylashdagi diktsiya.

Diktsiyaning uch toifasi qabul qilingan. Bular – maishiy, sahnaviy nutq va kuylov talaffuzi. Kuylov talaffuzi sahna nutqiga o'hshab ketsada, lekin ayrim jihatlar bilan farqlanadi. Sahnaviy nutq o'zining tezkor glissandosini, tonlarning noturg'unlashishi va boshqa jihatlar bilan xarakterlanadi. Kuylashda katta e'tiborni kuylash toni, so'zlarning ritmik jihatdan ravonligi, nafasning kengligi va davomiyligi va so'z musiqaga bo'ysunishiga qaratiladi.

Italiya kuylash maktablarida diktsiya alohida xarakterlanadi. U kuylashning asosi hisoblanib, Italiya tilida so'zlarning tushunarsiz va aniq talaffuz qilinmasligiga hech qachon yo'l qo'yilmaydi.

Italiya ona tili o'zida juda ko'p undosh harflarni, shu qatori undoshlar bilan biriktirilgan jarangdor unli tovushlarni o'z ichiga oladi. Birinchi tovushning tebranishi, so'ngra uni talaffuz qilinishiga erishmoq kerak. Agar xonanda haqiqiy tovush tebranish ko'nikmasiga ega bo'lsa, unda so'z ham tushunarli bo'ladi. Maestro Barraning fikricha: «Melodik kuylash, ayrim hollarda og'zaki bo'lishi ham mumkin» deya ta'kidlagan. Uning fikricha, agar tovush to'g'ri yo'naltirilgan

tebanish va yengillik ila undosh tovushlarni o‘z ortidan ergashtirgan unlilar evazigan zal tomon xarakatlatsa yetarli darajada tomoshabin va tinglovchiga tushanarli bo‘ladi. Barraning ish faoliyatidan kelib chiqqan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, «Lablar tebranishi» ning ahamiyati kattadir.

Xonanda Ivanov o‘z kitobida: «Diktsiya undoshlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, unli tovushlarni ovoz orqali to‘g‘ri kuylash natijasida yuzaga keladigan undoshlar orqali unlilarni to‘g‘ri yo‘naltirmoq muhim amallardan biri sanaladi. Tajribali yakkaxonandalar shuni ko‘pincha ta’kidlashadiki, unlilar o‘zida undoshni olib ketishi kerak, xuddi, otliqni ergashtirib ketgandek, yoki qirg‘oq va dengizning uyg‘unligini misol keltirib o‘tishadi».

– «Undoshlarni mukammal darajada talaffuz qilish tovushning hajmini va kuchini oshiradi», deb ta’kidlaydi o‘z kitobida Teryan’ Korganov.

Demak birinchi qoida: Aniq va ravshan undosh tovushlarni kuylash, lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki bu ayrim hollarda xonandani musiqaning ritmik xarakatidan olib qochishi mumkin.

Pedagog Lavrovskiyning fikricha – «yaxshi diktsiya ovoz sifatida yomon ta’sir o‘tkazishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak». Ivanov esa yosh xonandalarga – «kuylash paytida so‘z xonandaning lablarida, tishlarida, tilining uchida, og‘zining old qismida va burnining pastida bo‘lmog‘i kerak» deya maslahatlar bergan.

Har doim yodda tutmoq kerak, musiqiy asarlardan romans yoki ariyalarni kuylash paytida asosiy omil sifatida qarash har doim ham to‘g‘ri hisoblanavermaydi, bunda asosiy rolni asarning kayfiyati egallaydi. Musiqa so‘z bilan naqadar bog‘liqligi uni asarning qaysi tilda yozilgan bo‘lsa o‘sha tilda aniq talaffuz qilinishi muhimdir. Agar fransuz tilida yozilgan musiqiy asarni o‘zbekcha talaffuz bilan ijro etsa nafaqat tinglovchida balki, xonandada ham murakkabliklar tug‘diradi.

«Aniq diktsiya va so‘z bilan kuylanmagan asarlarning aniq ma’nosi tom ma’noda «yo‘qolib» qoladi» – deydi S.Ya.Lemeshev.

Everardining ta'kidlashicha, diktsiya va frazirovka kuylashning asosiy ustunlari hisoblanib, unga juda ham qattiq e'tibor qaratish zarur. O'quvchilarda rus tilini aniq bilmasligi, kuylayotgan asarni tinglovchi so'zlarni aniq eshitmagan holda taxmin qilib tinglashi noto'g'ri ekanligini birinchi darsdan boshlab tushuntirmoq kerak.

Kuylashning xarakteri diktsiya xarakteri bilan uzviy bog'liq bo'lmoqligi kerak. Bunda ovoz va diktsiyaning asar ma'nosidan kelib chiqqan holda to'g'ri yo'naltirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Tez tempdagi asarlarni ijro etayotgan paytda ovoz kuchini tejash va so'zni labga yaqin va yengil tarzda kuylash tavsiya etiladi. Dramaturgax, tantanavor asarlarda va madhiyalarda artikulyatsion apparatdan to'liq foydalangan holda har bir so'zni burro talaffuz etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sokin kuylarda so'z yumshoq tarzda kuylansa, marsh xarakteriga eta bo'lgan kuylarda esa aniq va dona-dona talaffuz etish zarur.

Noto'g'ri diktsiyaning tuzilishlari:

1. Lanj diktsiya, bunda unli tovushlarga katta e'tibor berilgan bo'ladi, natijada so'zlarning jaranglashi va talaffuz qilinishi tushunarsiz bo'ladi.
2. Undosh tovushlarni past intonatsiyalash natijasida yuzaga keladigan ovoznining noto'g'ri to'lqinlanishi, bunda tovush boshidan glissandoga uchraydi.
3. Haddan ziyod bo'rtirilgan talaffuz. Bu narsa yakkaxonda tabiiylikni va erkinlikni yo'qolishiga olib keladi.

